XALQ DEPUTATLARI OLMALIQ SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 31-mart VII-39-27-10-147-K/26 Olmaliq shahar

2026-yilda Olmaliq shahar bo‘yicha “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

2026-yilda Olmaliq shahar bo‘yicha “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida shahar davlat soliq inspeksiyasining 2026-yil 11-fevraldagi 14-01061-sonli murojaatiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli Qarorining 2-bandi (v) bandiga asosan O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PQ-387-sonli Qarorining 2-bandi (v) bandi bilan Xalq deputatlari shahar Kengashlariga “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. 2026-yil uchun Olmaliq shahar hududida “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish

korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari shahar - Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i **Sh.Begiyev**, shahar davlat soliq inspeksiyasi **I.Aliyev** mazkur qarorni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini hamda mazkur yig‘imlardan tushgan tushumlar to‘liq miqdorda shahar budjetiga yo‘naltirilishi yuzasidan chora-tadbir belgilash choralarini ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

4. Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi deputatlariga:

“Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlar bo‘yicha jamoatchilik nazorati o‘rnatish tavsiya etilsin.

5. Olmaliq shahar hokimining matbuot kotibi - axborot siyosati masalalari bo‘yicha maslahatchisi **S.Boymirzayevga:**

mazkur qarordan kelib chiqqan holda 2026-yilda alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishi hamda shahar hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilishi ta'minlasin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kamida uch oydan keyin kuchga kirishi belgilansin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi **Z.Adilov** zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **KARIMOV DANIYAR DILMURATOVICH**

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2026-yil 31-martdagi
VII-39-27-10-147-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Olmaliq shahar hududida “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan “Alkagol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning miqdorlari

T\R	Yig‘im turi	O‘RQ-1105-sonli Qonuni 9-ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar (so‘mda)	Yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish (foizda)	2026-yil uchun to‘lanadigan yig‘im miqdori “Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im (so‘mda)
1.	“Alkogol mahsulotlari”ni (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	600 000	20	720 000
2.	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	20	360 000